	O'smirlar o'rtasida o'zaro hamkorlik shakllanishida shaxslararo munosabatlarning ahamiyati 1872 <i>Majidov Jasur Baxtiyarovich</i>
	Yosh futbolchilarda stress va asabiylikni boshqarish..... 1877 <i>O.T. Baxromov</i>
	Структура и содержание когнитивных компетенций в профессиональной подготовке педагога..... 1880 <i>Каримова Фариди Наильевна</i>
	Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishda milliy qadriyatlardan foydalanish..... 1884 <i>Muqimov Ma'ruf Olimovich</i>
	Biologiya darslarida innovatsion interfaol metodlar: STEM, CLIL, Flipped Classroom va PBL yondashuvlarini joriy etish mexanizmlari 1887 <i>Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li</i>
	Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish 1892 <i>Ibrohimova Nilufar Qobil qizi</i>
	Творческое наследие Тагай Мурада: его рассказы в оригинале и в переводе 1897 <i>Меликулова Нилуфар Хамдуллаевна</i>
	Gender Equality: an Important Prospect for the Development of a New Uzbekistan..... 1902 <i>Khamidova Sitorakhan Mukhammadjonovna</i>
	Gandbolchilarning jismoniy sifatlarini harakatli o'yinlar orqali rivojlantirish..... 1906 <i>Lutpullayev Bunyod Ismatilayevich</i>
	Abu Mansur al-Moturidiyning bilimning "Muvofiqlik nazariyasi" 1909 <i>Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>
	Professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarning rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklari..... 1914 <i>X. N. Agaliyeva</i>
	Maktabgacha ta'limda bolalarning hissiy-ma'naviy rivojlanishida didaktik o'yinlarning ahamiyati 1920 <i>Urinbayeva Barchinoy Zafarjanovna</i>
	Yoshlarni milliy musiqa san'ati va an'anaviy xonandalikka bo'lgan munosabatini tarbiyalash 1924 <i>Qurbonova Shoxisanam Axmadjonovna</i>
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tabiiy fanlar mavzularini o'rganishdagi klaster yondashuvlari. 1930 <i>Umarova Nafisa Ahmatillovna</i>
	11–15 yoshli suzuvchilarning mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish xususiyatlari 1934 <i>Hasanov Anvar Toxirovich, Asqarova Zaynura</i>
	Yosh voleybolchilarning jismoniy rivojlanishini o'rganish 1937 <i>Sultonov Baxtiyor Abdumurodovich, Hasanov Anvar Toxirovich</i>



Школьные трудности в обучении и педагогическое диагностирование	1940
<i>Урумбаева Айгуль Нагметовна</i>	
Erkin kurashchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda funksional kuch mashqlarining samaradorligi.....	1943
<i>Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li</i>	
Употребление падежных окончаний на уроках русского языка	1947
<i>Адилова Солияхон</i>	
STEAM va raqamli ta'lim texnologiyalari asosida alfa avlod o'quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	1951
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga qo'yiladigan didaktik talablar	1954
<i>Mansurova Lobar Luqmon qizi</i>	
Translation Techniques as an Integral Part of Foreign Language Teaching and Learning: Benefits and Potential Issues	1958
<i>Yusupova Nargiza Abdulxafizovna</i>	
Использование интерактивных методов обучения русскому языку в медицинском вузе.....	1963
<i>Бекмуратова Умида Аманбаевна</i>	
Nogironligi bo'lgan bolalarda adaptiv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sog'liqni saqlashdagi o'rni.....	1967
<i>Namozova Nargiza Husniddin qizi</i>	
The Importance of the Theoretical Basis in Educating Preschool Children in the Spirit of National Education Within the Family.....	1971
<i>Rakhmonova Diyora Utkir's daughter</i>	
Kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funksional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari.....	1976
<i>Nurullayev Abduxoliq Qaxxorovich</i>	
Voleybol mashg'ulotlarida funksional tayyorgarlikni oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari ...	1980
<i>Davulov Ozodbek Qalandarovich</i>	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarni kompleks tayyorlashning nazariy va uslubiy jihatlari.....	1984
<i>Djemilov Temur Rasimovich</i>	
Oilaviy nizolarning bolalar psixikasiga ta'siri.....	1989
<i>Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich maktab yoshidagi (6–8 yosh) chap qo'li dominant bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishi va xususiyatlari	1993
<i>Usmanova Sevara Akmalovna</i>	
Matematika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar orqali darsni qiziqarli va samarali qilish usullari ...	1996
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Entropiya o'lchovlarining nazariy asoslari: Shannon, Reyni va Tsallis entropiyasi taqqoslamasi.....	2001
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Abdurashidov Saydullo Xayrullo o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalari asosida kiberijtimoiylashuv samaradorligini oshirishning pedagogik sharoitlari va monitoring mexanizmlari.....	2007
<i>Istamova Dilnoza Norboyevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompetensiyaviy yondashuvga tayanib ta'lim mazmunini boshqarish	2012
<i>Turaxujayeva Madina Norpulatovna</i>	
Para armrestlingchi talabalarni musobaqa oldi texnik tayyorgarligini takomillashtirishda kuch sifatining o'rni.....	2015
<i>Karimov Faxriddin Xurramovich</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	2019
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Tinchlik madaniyati konsepsiyasining evolyusiyasi: klassik va zamonaviy falsafa	2023
<i>Abdumalikov Ilimjon Abduxamjonovich</i>	
Talabalarning muammoga asoslangan topshiriqlar orqali kognitiv mustaqilligini rivojlantirish: mohiyat va mazmun	2028
<i>Abduvaliyev Nurillo Abdujalilovich</i>	
Oliy ta'lim muassasasi pedagoglari innovatsion faoliyatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	2032
<i>Almardanova Salomat Bobonazarovna</i>	

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zarurati	2035
<i>Ashirov Abdurashid Ravshanovich</i>	
Pedagogik ta'lim klasteri tizimi asosida maktab laboratoriya innovatsion loyihasi amalg oshirishning o'ziga xosligi	2040
<i>Azimova Odinaxon Abduqodir qizi</i>	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	2043
<i>Kayumova Nazokat Rashitovna</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning metodik asoslari	2049
<i>Kurbanov Baxrom</i>	
Ingliz tilida o'qitish vositasi sifatida monologlardan foydalanishning muvaffaqiyatli strategiyalari	2053
<i>Madaminova Nilufar Madrasulovna</i>	
Raqamli texnologiyalar davrida o'quvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari	2056
<i>Mahmudov Dilmurod Rahmatjonovich</i>	
Gamifikatsiya va STEAM texnologiyalarini joriy etish orqali boshlang'ich ta'limda inklyuziya va teng imkoniyatlarni ta'minlash	2059
<i>Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi</i>	
Talabalarning tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2064
<i>Mamasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich</i>	
Maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari orqali jismoniy rivojlanish va funktional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish metodikasi.....	2067
<i>Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich</i>	
O'quv jarayonida "Data Science" elementlarini integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari	2072
<i>Mo'minova Dilnavoz Komilovna</i>	
Muloqot kompetensiyasining pedagogik-psixologik mazmuni va rivojlanish omillari.....	2077
<i>Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna</i>	
O'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning shakllanishida ota-onaning liderlik maqomining roli.....	2080
<i>Ogina Otajonova</i>	
Yarimo'tkazgichlar fizikasi fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari	2084
<i>Oromiddinov Sardorbek Botirovich</i>	
Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanish metodlari	2089
<i>Qobilov Vohidjon Asliddin o'g'li</i>	
Inklyuziv ta'limda pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlar ...	2092
<i>Qodirova Feruza Usmanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinli texnologiyalardan unumli foydalanishning roli.....	2095
<i>Sobirova Bonu Matkarimovna</i>	
Kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishlarida oila tarbiyasining ahamiyati	2099
<i>Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi, G'aniyeva Shodiya Azizovna</i>	
Talabalarning tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2102
<i>Mamasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik tizimi	2105
<i>Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna</i>	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish	2109
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi</i>	
Lingvokulturologiya va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida talabalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish.....	2114
<i>Y. T. Umarova</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda kasbiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar	2118
<i>Yakubova Manzura Abduraxmonovna</i>	
Integratsiyalashgan darslar orqali talabalarning kreativ salohiyatini rivojlantirish	2121
<i>Yaxyayeva Umida Sharifovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'limida "O'zbekiston tarixi" fanining amaliy komponentini kuchaytirish: klinik-ijtimoiy kontekst orqali o'qitish modeli	2125
<i>Yulchiyeva Gulnozaxon Shuxratbek qizi</i>	
Radiatsion fonning inson hayot faoliyatiga ta'siri mavzusini o'rganishning pedagogik ahamiyati	2130
<i>Sodiqov Murod Naimovich</i>	



Talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi	2134
Tashpulatov Farxad Alisherovich	
“Arba’in” asarida qit’alarning vazniy xususiyatlari.....	2140
Eshniyazova Maysara Beknazarovna	
Guruhiy loyihalar orqali bolalarda hamkorlik va muloqot ko’nikmalarini tarbiyalash.....	2145
Negmatova Sanobar Qarshiboyevna	
Sport takomillashuv gurugidagi futbolchilarni o’yinga yo’naltirilgan mashg’ulotlar orqali musobaqaga tayyorgarlikni takomillashtirish	2149
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyevich	
Oliy ta’lim raqobatbardoshligining ta’lim sifatini oshirishdagi roli	2155
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
Sharq donoligi va zamonaviy ta’lim uyg’unligi	2162
Djurakulova Adolat Xolmuratovna	
The Role of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language	2165
Babayeva Komila Rishatovna	
Zaif eshituvchi bolalarga tasviriy san’atni o’rgatishning metodik asoslari (miniatyura misolida).....	2169
Buharbayev Muxtar Yusupovich	
Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining axloqiy va estetik madaniyatini takomillashtirish: maxsus yondashuvlar	2172
Do’schanova Nafosat Norimonovna	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikirlashni rivojlantirish texnologiyalari	2176
Fayzullayeva Feruza Raxmatovna	
Bo’lajak o’qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	2179
Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi	
Dialekt va adabiy til: o’zaro munosabat	2183
Jumanazarova Guljahon	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o’rgatishda interaktiv ta’lim texnologiyalar.....	2187
Kimsanboyeva Ruksoraxon Ziyodbek qizi	
Pedagogik nizolarni hal etishda bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari	2190
Norjon Jamilova Abduxoliq qizi	
Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	2194
Shamsiyeva M. R.	
O’smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari	2196
Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi	
Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки	2200
Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)	
Цифровизация в дошкольном образовании: механизмы управления для повышения качества	2204
Иногамова Д. О.	
Bolalar serebral falajida bolalarning pedagogik, tibbiy va ijtimoiy rehabilitatsiya kompleksida – logopedik korrektsiya.....	2210
Xusniddinova Barno Xodjiakbarovna	
Maktab ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadlari va chora-tadbirlari	2214
Ma’rifat Abdullayeva	
Tarbiyasi qiyin o’smirlar bilan ishlashda xatti-harakatlarning buzilishi va xarakter nuqsonlarining oldini olish hamda tuzatishning ilmiy asoslari.....	2218
Mamayusupova Iroda Xamidovna	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarda nutqni tekislashda multimodal ta’lim texnologiyalarining o’rni	2224
Xodjabekova Surayyo Abduganiyevna	
Maktabgacha ta’lim tashkilotida eko-art loyihalari	2229
Mamatova Xusnora Eshquvatovna	
Влияние искусственного интеллекта на развитие личности детей старшего возраста	2232
Матчанова Камила Фарход кизи	

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin orqali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.....	2237
<i>Nazarova Asila Mamarasulovna</i>	
The Concept of Oral Speech Skills and Age- and Ability-Related Characteristics of School Students (Grades 5–6).....	2241
<i>Rustamova Khurshida Yusupovna</i>	
Akmeologik yondashuv asosida pedagogika fanini transformatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning o'rni.....	2245
<i>Xusayinova Go'zal Abdurasulovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	2249
<i>Qo'chqarova Mahmuda Adhmovna</i>	
Fasilitatsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish	2252
<i>Xoshimova Gulnoza Lukmonovna, Abduraimova Nilufar Baxtiyorjon qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish	2255
<i>Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi</i>	
Talabalarda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz madaniyatni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ...	2259
<i>Axmedova Dilnora Kobiljonovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni professional nutq madaniyati bo'yicha tayyorlash innovatsiyalari	2262
<i>Ismoilov Temurbek Islomovich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda badiiy tafakkurning rivojlanish dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar	2266
<i>Shaxobitdinov Xayotbek Hakimjon o'g'li</i>	
Lexicon Expansion Model for ELF Learners: a Cognitive, Pedagogical, and Usage-Based Approach.....	2271
<i>Komola Khikmatullaevna Usmanova</i>	
Ta'limni fundamentallashtirish sharoitlarida axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitish usullari va o'quv materiallari	2275
<i>Boymanov Jasur Isroil o'g'li</i>	
O'quvchilarda ta'lim jarayonida kimyoviy modellardan foydalanish tajribasi	2279
<i>Jobborov Farxod Bo'riyevich</i>	
Fanlararo aloqadorlikdagi masalalarni dasturiy ta'minot vositasida STEAM ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali yechishga o'rgatish metodikasi	2282
<i>Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida STEAM asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirishni tatbiq etishning usul, vosita va metodlari.....	2286
<i>Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Shavkatova Jasmina Jamshid qizi</i>	
Ta'limda raqamli darsliklarning o'rni va ahamiyati ("Dasturlash" fani misolida)	2291
<i>Tursunov Mirolim Ahmadovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog-tarbiyachi faoliyatiga kreativ yondashuv.....	2296
<i>Z. S. Muxtorova</i>	



O'QUVCHILARDA TA'LIM JARAYONIDA KIMYOVIY MODELLARDAN FOYDALANISH TAJRIBASI

Jobborov Farxod Bo'riyevich

Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi,
Aniq va tabiiy fanlar kafedrasini mudiri p.f.f.d., (PhD) dotsent

ORCID: 0009-0002-9913-4940

Annotatsiya: Maqolada ramziy kimyoviy o'quv-belgili modellarida quyidagi tamoyillarning muhim ahamiyat kasb etishi tahlil qilingan: belgili model, verbal model, virtual model, ko'rgazmalilik, tizimlilik va izchillilik, mustahkamlik, ilmiylik hamda nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik.

Kalit so'zlar: o'quv, ramz, model, didaktik, funktsiya, umummetodologik, tamoyillar.

Abstract: The article analyzes the importance of the following principles in symbolic chemical educational models: symbolic model, verbal model, virtual model, visualization, systematicity and consistency, durability, scientific validity, and the interrelation between theory and practice.

Key words: educational, symbol, model, didactic, function, general methodological, principles.

Аннотация: В статье анализируется значимость следующих принципов в символических химических учебно-знаковых моделях: символическая модель, вербальная модель, виртуальная модель, наглядность, систематичность и последовательность, прочность, научность, а также взаимосвязь теории и практики.

Ключевые слова: учебный, символ, модель, дидактический, функция, общеметодологический, принципы.

KIRISH

Model tushunchasi tizim sifatida qaralib, ko'p hollarda uning xususiyatlarida genetik faoliyat belgilari aks etadi. "Tizim" tushunchasi orqali ^[1] "model" tushunchasi ma'lum bir bilishga oid, ya'ni kognitiv maqsadga erishish uchun bir butunga proyeksiyalangan o'zaro ta'sir qiluvchi tarkibiy elementlarning to'plami sifatida aniqlanishi mumkin. Biror tizimning "xatti-harakatlarini" aniq tavsiflaydigan modelni qurib bo'lmaydi, chunki modelda bu haqda to'liq va yakuniy ma'lumotlar to'plami mavjud emas. Model va asl nusxa o'rtasidagi munosabatlar uchun quyidagi shartlar keltiriladi ^[1]: aks ettirish sharti yoki o'xshashlikni aniqlashtirish, reprezentatsiya sharti hamda ekstrapolyatsiya sharti.

Model mavjudligining o'zaro bog'liqligi va bir-birini ta'minlash shartlariga quyidagi umumiy metodologik postulatlar qo'shimcha qilinadi: kuzatiluvchanlik postulati, ya'ni modellashtirilayotgan obyektga kirish va chiqish jarayonlari kuzatilishi lozimligi hamda barqarorlik postulati, bunda modellashtirish obyektlari faqat barqarorlik bilan ajralib turadigan, ya'ni juda tez o'zgaraydigan obyektlar bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi; agar o'zgarish yetarli darajada tez sodir bo'lsa, unda o'zgarish jarayonining o'zi barqaror bo'lishi, boshqacha qilib aytganda, muayyan qonuniyatga bo'ysunishi hamda muntazamlikka ega bo'lishi lozim. "Model" tushunchasini falsafiy jihatdan ko'rib chiqish asosida amalga oshirilgan tahlillar natijasida ushbu dissertatsion tadqiqot doirasida undan foydalanishning asosiy jihatlari quyidagicha belgilanadi: barcha modellar o'zining asl nusxasiga nisbatan ma'lum darajadagi o'xshashlikka ega bo'ladi; o'xshashlik darajasi bilish subyektini tomonidan aniqlanadi; o'xshashlik darajasi va teranligi bilish maqsadlari bilan belgilanadi; model o'rin almashtirish, ma'lumot olish hamda turli yechimlarga oid qarorlarni qabul qilish vositasi hisoblanadi; barcha modellar tizimli tavsifga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'lim jarayonida modellardan foydalanish tajribasini tahlil qilib, quyidagilarni aytish mumkin. Qadimgi davrlarda ma'lumotlarni berish yoki uzatish jarayonida insonlar haqiqiy narsalarni odatiy belgilar va ishoralar orqali ifodalagan hamda og'zaki nutqda tushuntirishlarni shakl va chizmalar yordamida amalga oshirganlar. O'qitish vositalari va metodlari nazariy jihatdan asoslangandan so'nggina modellar pedagogik ma'noga ega

bo'ladi. Didakt olimlar model haqidagi quyidagi ta'riflarni keltirganlar: model – obyekt yoki uning qismining kattalashtirilgan yoki kichraytirilgan masshtabda (tabiiy holatiga qaraganda kichikroq) uch o'lchovli tasviri bo'lib, qismlarning o'lchamlari va nisbatlariga aniq rioya etilgan holda tasvirni uzatishda sxematik tasvirlashga hamda konvensiyalardan foydalanishga imkon beradi. "Model" tarkibiy tuzilish jihatidan tadqiqot predmetiga o'xshash, unga izomorf bo'lgan tizimdir [2].

Model, shuningdek, ma'lum bir bilim sohasidagi dalillar, narsalar va munosabatlarning soddalashtirilgan hamda vizual material tuzilishi ko'rinishidagi tasviri sifatida ham tushuniladi [2]. Bunday holda bu moddiy obyekt bo'lgan model-analoging ta'rifi hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi vaqtda didaktika "model" tushunchasining falsafiy ta'rifini qabul qiladi va shu bilan birga uni to'ldiradi [3]. Xususan, bu model yaratish yoki modellashtirish jarayonining mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. "Model – asl nusxaning ba'zi muhim xususiyatlarini takrorlaydigan obyekt yoki belgilar tizimidir. Model hodisaning umumlashtirilgan tasviri bo'lib, u eksperimentning bevosita natijasi emas, balki amaliy-mavhum umumlashtirish natijasi hisoblanadi" [4, 104-b.]. "Pedagogika" darsligida "model" tushunchasiga falsafiy nuqtai nazardan ta'rif berilgan bo'lib, shu bilan birga modeldan foydalangan holda ushbu obyekt haqida yangi ma'lumotlar olish, ya'ni uning taxminiy ahamiyati to'g'risida bilish imkoniyati qayd etilgan. Pedagogika uchun "model" tushunchasining mazmuni va ko'lamini ochib beradigan barcha ta'riflarda modelning axborot berish imkoniyatiga ega ekanligini ta'kidlash muhimdir. Umumiy holda modellar haqida fikr yuritilganda axborot modellari tushuniladi.

Axborot modeli – obyekt, jarayon va hodisalarning muhim xususiyatlari hamda holatlarini tavsiflovchi ma'lumotlarni ifodalaydi va tashqi olam bilan munosabatlarni aks ettiradi. Axborot modeli obyektning modeli bo'lib, u axborotlar ko'rinishida taqdim etiladi. Axborot modellarini sezish yoki ko'rish mumkin emas, ular moddiylikni o'zida namoyon etmaydi, chunki faqat axborot yoki ma'lumotlar asosida quriladi. Axborot modellari deyilganda turli xil modellar, jumladan, belgili, virtual va verbal modellar tushuniladi. Belgili model [sign model] uch model turidan biri bo'lib, unda ramzlar (belgilar)dan foydalaniladi. Modellashtirilayotgan obyektning tavsiflovchi katta-liklar o'rtasidagi munosabatlar belgilar bilan bog'langan tenglamalar yordamida ifodalanadi, ya'ni modellashtiriladi. Ana shundan belgili yoki ramziy model tushunchasi kelib chiqadi. Verbal ta'sir so'z nutqi orqali amalga oshiriladigan ta'sir bo'lib, bunda asosiy vosita so'zlar hisoblanadi. Nutq o'zaro muloqot jarayoni bo'lib, uning vositasi so'zlardir. Monologik nutqda ham shaxs o'zidagi so'z boyligidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarni tanlash orqali tinglovchiga ta'sir ko'rsatishga intiladi. Verbal model formulalar, jadvallar yoki grafikalar orqali emas, balki so'zlar bilan tavsiflanadigan modeldir. Kimyoviy formulalar, belgilar va qoidaviy keltirib chiqarishlarni tushuntirishda, shuningdek, kimyoviy savollarga javob berish va ularning matematik tenglamalarini yozishda turli katta-liklar o'rtasidagi munosabatlarni anglash uchun verbal modellardan foydalaniladi. Verbal modelning asosini modellashtirish va o'xshash fikrlash tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tushunchalar o'rtasida statistik jihatdan muhim bog'liqlik mavjud. Ayniqsa, ko'rib chiqilayotgan o'xshashliklarni chuqurroq tushunadigan o'quvchilar kimyoviy o'zgarish modelini og'zaki bayon qilish hamda u asosida oldinga qo'yilgan vazifalarni hal etishda mantiqiy fikr yuritish qobiliyatini namoyon etishlari bilan ajralib turadilar. Bundan ko'rinadiki, modellashtirish va o'xshashlik, birlashish jarayonlari kimyoviy o'zgarish modelini yaratishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Virtual va verbal modellar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Virtual modelda sodir bo'ladigan kimyoviy hodisalar va jarayonlarni amaliy dasturiy vositalar yordamida bevosita kuzatib, mulo-haza yuritish mumkin bo'lsa, verbal modelda kimyoviy hodisa va jarayonlar ularning tavsifi orqali idrok etiladi. Virtual va verbal modellar doimo bir-birini to'ldirib boradi. Verbal modelning qulay jihatlari sharh orqali mulohaza yuritish, voqea-hodisalarni idrok etish, ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lish hamda kimyoviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bilan izohlanadi. Virtual modeldan kimyo fanini o'qitishda foydalanish jarayonida onlayn boshqariladigan virtual modellashtirish tizimlarining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Virtual modellar bilan ishlash aniq natijalarga erishish uchun asos bo'lib xizmat qiladi hamda ikkala model turida ishlash o'xshash aniqlik darajasida o'lchanadi. Virtual modellardan foydalanish ayrim real tajribalarga nisbatan ham samaraliroq bo'lishi mumkin, biroq ularning samaradorligi interaktivlik darajasining cheklanganligi bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Virtual modellar zamonaviy fan tarmog'i sifatida keng tarqalgan bo'lsa-da, virtual va aniq modellarning nisbiy samaradorligi haqidagi empirik ma'lumotlar yetarli darajada emas.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, virtual modellardan organik kimyo sohasidagi vazifalarni bajarishda aniq modellardan foydalanish bilan maktab o'quvchilarining ishlash ko'rsatkichlarini bevosita taqqoslash mumkin. O'quvchilar molekularning diagrammalarini moslashtirish yoki modellar va diagrammalar orqali ifodalangan molekular tuzilishini solishtirish jarayonida virtual yoki aniq modellardan foydalanishlari mumkin. Diagramma



va modellar mos kelgan holatlarda o'quvchilar virtual modellar yordamida yuqori samaradorlikka erishadilar, bu esa keyinchalik aniq modellardan foydalanishga zamin yaratadi. Virtual sharoitda kimyo fanini shaxsiy laboratoriyada hamda sinfdagi kompyuter orqali o'rganish imkoniyati mavjud, chunki virtual kimyo laboratoriyasida ishlash va simulyatsiyalarni kuzatish kimyoni o'rganishning qo'shimcha usullarini taqdim etadi. Virtual modelning qulayliklari qatoriga ishonchlilikni kiritish mumkin, ya'ni maxsus fizik-kimyoviy model real vaqt rejimida foydalanuvchi harakatlari natijalarini hisoblab beradi. Shuningdek, harakatlar erkinligi yuqori darajada ta'minlanib, tezkor teskari aloqa imkoniyati yaratiladi. Xato qilish huquqi esa o'quvchiga mustaqil ishlash, xatolarga yo'l qo'yish va ularni tahlil qilish imkonini beradi, bu esa muhim o'quv elementi hisoblanadi. Virtual laboratoriya jurnali foydalanuvchining harakatlari, kuzatuvlari va xulosalarini qayd etish uchun qulay tizim bo'lib, unda maxsus mavzular bo'yicha mundarijalar ham aks etadi.

Virtual modelning eng qulay tomoni uning oddiyligi va tezkorligidadir. Zamonaviy fanda ma'lumotlarni uzatish usullari odatda belgilar tizimi sifatida qaraladi. Shu o'rinda savol tug'iladi: agar model o'z xususiyatlariga ko'ra belgi sifatida ishlash imkoniyatiga ega bo'lsa, belgili modellarning ishlash xususiyatlari qanday bo'lishi mumkin? Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan kimyo fani mazmuniga asoslangan belgili modellar qanchalik samarali va axborot berish imkoniyatiga ega? Shu sababli, kimyo fanini o'qitish jarayonida axborot modellarning ma'nosi va ahamiyatini aniqlash uchun "kimyoviy axborot modeli" tushunchasini tahlil qilish, kimyo fanini o'qitish metodikasida qo'llaniladigan "axborot modeli" tushunchasiga aniqlik kiritish hamda bir-biriga juda o'xshash bo'lgan "belgi" va "ishora" tushunchalarini o'zaro taqqoslash maqsadga muvofiqdir. Ulardan foydalanishning turli jihatlari faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va metodistlarning ilmiy izlanishlarida tahlil qilingan^[3]. Model va axborot modeli tushunchalari o'z tarkibida kesishgan bo'lib, har ikkalasi ham asl ma'lumotni saqlash, o'zgartirish va uzatish vazifasini bajaradi^[3]. Biroq shuni ta'kidlash joizki, obyekt va uning obyektiv o'rnini bosuvchisi o'rtasidagi aloqa modellashtirish jarayoni natijasida vujudga keladi. Belgi asl nusxa haqidagi ma'lumotni qayd eta oladigan hamda uning o'rnini bosuvchi timsol hisoblanadi^[5]. Masalan, H – vodorodning kimyoviy belgisi bo'lib, uning lotincha Hydrogenium (suv hosil qiluvchi) nomining bosh harfidan olingan, Hg (Hydrargyrum) esa simobning kimyoviy belgisi bo'lib, lotincha nomining bosh harfi va qo'shimcha harfidan tashkil topgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Belgi tushunchasiga juda o'xshash bo'lgan hamda timsol sifatida aniqlanuvchi "ishora" tushunchasi odatda turli xil tasvirlar, tarkibiy qismlar va munosabatlarning namoyon bo'lishi sifatida talqin qilinadi. Biroq ularni farqlash lozim. Belgining asosiy vazifasi obyektiv tarkibiy qismlar uchun aniq chegaralarni o'rnatish va ularni ixtiyoriy tarzda belgilashdan iborat bo'lsa, ishoraning vazifasi esa uning obyektiv dunyoda ko'rinishining barcha xilma-xilliklarida yagona ideal tarkibiy qism birligini ko'rsatishdan iboratdir^[6]. Ishoraning belgidan yana bir muhim farqi shundaki, agar ishora uchun g'oyani ifodalovchi muayyan tasvirning mavjudligi muhim bo'lsa, belgi uchun tasvir va ma'no o'rtasidagi bog'liqlik ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'ladi. Belgi obyektiv voqeligi bilan qat'iy bog'liq bo'lgan holda ko'p marotaba talqin qilinishi mumkin, ishora esa nostandart, ammo ichki mantiqiy aloqalarni izlashga imkon beruvchi moslashuvchan va keng semantik maydonga asoslanadi. Aynan shu jihatlarda belgi hamda ishora tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni belgilab beradi^[7]. Ishorada belgi uchun xos bo'lmagan, ya'ni ular uchun rivojlanmagan holatlar va munosabatlar ko'rsatiladi.

Belgi va ishora tushunchalari ularda aks etgan universallik darajasiga ko'ra ham farqlanadi. Agar belgi haqiqiy narsalarning umumlashtirilgan xususiyatlarini aks ettirsa, ishora ongda allaqachon shakllangan tushunchalarni ko'rgazmali-majoziy shaklda, go'yo ikkinchi darajali belgi sifatida ifodalaydi^[8].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Штофф В.А. Моделирование и философия. – Л.: Издательство "Наука", 1966. – 226 с.
2. Архангельский С.И. Кибернетические аналогии в обучении / С.И. Архангельский. – М.: Знание, 1968.
3. Растринин Л.А., Марков В.А. Кибернетические модели познания. – Рига: Знание, 1976. – 265 с.
4. Полонский В.М. Научно-педагогическая информация: словарь-справочник. – М.: Новая школа, 1995. – 256 с., С. 104.
5. Уваров Л.В. Образ, символ, знак (Анализ современного гносеологического символизма). – Минск: Наука и техника, 1967. – 120 с.
6. Поляков А.М. Символ как условие продуктивного действия // Вопросы психологии. – 2006. – № 1. – С. 63–73.
7. Жабборов Ф.Б. Умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчиларда кимё фани мазмунида умумлаштирилдиган кўникмалар // Xalq ta'limi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali, № 4-2021.
8. Жабборов Ф.Б. Кимё дарсликларининг ахборот моделларини таркибий-мазмуний таҳлили // Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal, № 3-2021.
9. Жабборов Ф.Б. Кимёвий ахборот моделларнинг та'лим jarayonidagi asosiy vazifalari // Zamonaviy jamiyatda fan va ta'limning rivojlanish istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Termiz, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.